

## O'zbek charm-poyabzal sanoati rivoji uchun yana bir qadam

O'zbekiston Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti olimlari tomonidan "Materialga ishlov berish tezligini avtomatik boshqaruvchi vallı mashina" konstruksiyasi ishlab chiqildi va ixtiroga patent olindi.



Ushbu ishlanma teri xom-ashyosiga mexanik ishlov berishda ishchi vallar uzatmasini tezligini reostat yordamida materialning yuzasi bo'yicha qalinligining o'zgarishiga mos ravishda texnologik jarayonning tezligi avtomatik holda boshqariladi.

Ushbu valli texnologik mashinani qo'llash orqali charm-poyabzal sanoatida qalinligi va kengligi xilma-xil bo'lgan teri xom ashyolardan sifatlari charm mahsulotlarini ishlab chiqarishga erishiladi. Bir so'z bilan aytganda bu ishlanma mamlakatimizda charm-poyabzal sanoatining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.